



THE ROLE AND SPECIFIC FEATURES OF INTRODUCING ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO THE ACTIVITIES OF PROSECUTORIAL AUTHORITIES: OPPORTUNITIES AND RISKS

Yulduz Jabbarova

(PhD) researcher

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Generative Artificial Intelligence (GAI), big data, digital evidence, "AI-prosecutor" system, "closed-system" model, internal confidential data, AI hallucinations, risk of algorithmic discrimination.

Received: 04.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 04.08.25

Abstract: This article examines the importance and necessity of artificial intelligence (AI) technologies in modernizing the activities of prosecutorial authorities in accordance with contemporary requirements and ensuring the effective performance of their official duties. In particular, it explores the specific features of applying AI in the collection, analysis, and centralized management of digital evidence. The study also provides a comparative overview of the practical use of AI in prosecutorial systems in the United Kingdom, the United States, and China, highlighting its practical capabilities. Furthermore, the article addresses the potential risks associated with the integration of AI, the need to uphold international legal and ethical regulations to ensure human rights, social justice, fundamental values, and public safety. Based on in-depth analysis, the article puts forward concrete proposals and recommendations tailored to the national legal framework.

PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATIGA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNING O'RN VA XUSUSIYATLARI: IMKONIYATLAR VA XATARLAR

Yulduz Jabbarova

tayanch doktorant

O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Generativ Sunʼiy Intellekt (GAI), katta hajmdagi maʼlumotlar (big data), raqamli dalillar, “sunʼiy intellekt-prokuror” tizimi, “yopiq tizim” modeli, ichki maxfiy maʼlumotlar, sunʼiy intellekt gallyutsinatsiyalari, algoritmik diskriminatsiya xavfi.

Annatatsiya: Ushbu maqolada prokuratura organlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va xizmat vazifalarini samarali amalga oshirishda sunʼiy intellekt texnologiyalarining (SI) ahamiyati va zaruriyati, xususan, raqamli dalillarni toʻplash, tahlil qilish va markazlashgan holda boshqarishda sunʼiy intellektni qoʻllashning oʻziga xos jihatlari, shuningdek, Buyuk Britaniya, AQSh va Xitoy davlatlarida prokuratura faoliyatida sunʼiy intellektdan foydalanish tajribasi va uning amaliy imkoniyatlari, sunʼiy intellektni joriy etish bilan bogʻliq ehtimoliy xavf-xatarlar, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, qadriyatlar va xavfsizlikni taʼminlashda xalqaro huquqiy va axloqiy reglamentlarni qoʻllash zaruriyati hamda chuqur tahlillar asosida milliy qonunchilikka mos aniq taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

РОЛЬ И ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ: ВОЗМОЖНОСТИ И РИСКИ

Юлдуз Джаббарова

(кандидат наук), исследователь
Академии правоохранительных
органов Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Генеративный искусственный интеллект (ГАИ), большие данные, цифровые доказательства, система «ИИ-прокурор», модель «закрытой системы», внутренние конфиденциальные данные, галлюцинации искусственного интеллекта, риск алгоритмической дискриминации.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и необходимость технологий искусственного интеллекта (ИИ) для совершенствования деятельности органов прокуратуры в соответствии с современными требованиями и обеспечения эффективного исполнения служебных обязанностей. Особое внимание уделяется специфике применения ИИ при сборе, анализе и централизованном управлении цифровыми доказательствами. В работе также представлен сравнительный обзор практического опыта использования ИИ в деятельности прокуратуры Великобритании, США и Китая, с акцентом на его прикладные возможности. Кроме того, в статье анализируются потенциальные риски, связанные с внедрением ИИ, необходимость соблюдения международных правовых и этических норм в целях обеспечения прав

человека, социальной справедливости, фундаментальных ценностей и общественной безопасности. На основе глубокого анализа предлагаются конкретные предложения и рекомендации, адаптированные к национальному законодательству.

Ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi jadal rivojlanish davrida sun'iy intellekt (SI) insonning aqliy faoliyatini modellashtirishga qaratilgan fanlararo tadqiqotlar hamda ilg'or texnologiyalar majmuasi sifatida jamiyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab bermoqda. Ushbu tizim inson kabi fikrlash, tahlil qilish va muammolarga yechim topish kabi funksional xususiyatlari orqali murakkab aqliy jarayonlarni chuqur va tizimli modellashtirish imkonini yaratadi.

Xususan, 2025-yil 2-iyul kuni e'lon qilingan ilmiy tadqiqotda "Centaur" deb nomlangan sun'iy intellekt modeli insonning qaror qabul qilish jarayonini yuqori aniqlikda namoyon eta olishi qayd etildi. Ushbu model Meta kompaniyasi tomonidan Llama platformasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, "Psych 101" nomli ulkan psixologik ma'lumotlar to'plami asosida qayta o'qitildi. Shu jihatdan Centaur nafaqat insonning fikrlash usullarini, balki insonning turli psixologik xulq-atvorini ham bashorat qila oladigan dastlabki ishonchli model sifatida tan olindi. Ayniqsa, olib borilgan testlarda bu model 32 ta kognitiv vazifaning 31 tasida an'anaviy nazariya va modellariga nisbatan ustun natijalarni namoyon etdi. Bu esa mazkur tizimni insondek fikr yuritish qobiliyatiga ega ishonchli sun'iy intellekt sifatida baholab, sun'iy intellektning inson qarorlarini tushunish va bashorat qilishdagi salohiyati kengayib borayotganini ko'rsatadi. [1]

Shuningdek, The Financial Times nashri ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) sun'iy intellekt texnologiyalarini qonun ijodkorligi jarayonlariga tatbiq etgan dunyodagi ilk davlatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tashabbus doirasida yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish kabi vazifalarda sun'iy intellektidan foydalanish ko'zda tutilgan.

Ushbu jarayonda SI asosida ishlovchi algoritmik tahlil tizimi muntazam ravishda amaldagi qonunchilik bazasini tahlil qiladi hamda normativ-huquqiy hujjatlarga zarur o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Tadqiqotlar va soha mutaxassislarining fikricha, ushbu raqamli platforma qonun ijodkorligi jarayonlarining samaradorligini tahminan 70 foizga oshirish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt bilan bog'liq shu kabi zamonaviy texnologik yutuqlarning jadal rivojlanishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, prokuratura faoliyatida ularni joriy etishga bo'lgan ehtiyoj va strategik ahamiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, prokuratura organlari faoliyatining bugungi zamonaviy

talablarga mos tarzda takomillashuvini ta'minlash bilan birga, ularning vakolat va vazifalarini samarali amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ma'lumki, prokuratura organlarining faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish vazifalarini bajarishga qaratilgan. Ushbu mas'uliyatli vazifalar yuqori darajada tahliliy fikrlashni, aniq ma'lumotlarga tayangan holda strategik qarorlar qabul qilishni, shuningdek, zamonaviy tahdidlarga nisbatan tezkor, tizimli va innovatsion yondashishni talab etadi. Negaki, an'anaviy faoliyat usullari va inson omiliga asoslangan yondashuvlar, ayrim hollarda, bunday tahdidlarga nisbatan munosib chora-tadbirlarni ishdab chiqishda samaradorlik va tezkorlik nuqtai nazaridan yetarli bo'lmasligi mumkin.

Ayniqsa, hozirgi murakkab davrda huquqbuzarliklar tabiatida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, jumladan, raqamli muhitda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar, sun'iy intellekt vositasida amalga oshirilayotgan murakkab huquqbuzarliklar ko'payib borayotgani sharoitida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq yangi vazifa va talablarni qo'ymoqda. Bunday sharoitda prokuratura organlari o'z vakolatlarini to'laqonli va samarali amalga oshirishlari uchun faqatgina huquqiy bilim va amaliy tajribalar bilangina cheklanmay, shuningdek texnologik savodxonlik, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) bilan ishlash, ularni tartibga solish va tahlil qilish bo'yicha intellektual va algoritmik tahlil ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari lozim.

Biroq, sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, asosan, katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamiga tayangan holda, oldindan belgilangan algoritmlar yordamida shakllanadi. Ushbu holat sun'iy intellekt vositalarining inson aqliy faoliyati uchun xos bo'lgan ruhiy anglash, axloqiy mezonlar asosida baholash hamda his-tuyg'ulari, ichki sezgisi (intuitsiya) asosida mulohazali qarorlar qabul qilish kabi murakkab jarayonlarni to'liq amalga oshira olmasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, inson manfaatlarini va qadriyatlarining ustuvorligini ta'minlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Natijada, axloqiy mezonlar va ijtimoiy adolat kabi muhim jihatlar sun'iy intellekt tizimlarida yetarli darajada hisobga olinmasligi ehtimoli yuzaga keladi.

Xususan, ayni shu muammoni bartaraf etish maqsadida Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan 2019- yil 8-aprelda Sun'iy intellekt bo'yicha yuqori darajadagi ekspertlar guruhi (High-Level Expert Group on AI) tomonidan ishlab chiqilgan va e'lon qilingan "Ishonchli sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha axloqiy yo'riqnoma"da (Ethics Guidelines for Trustworthy Artificial Intelligence) texnologiyalar inson huquqlari, axloqiy me'yorlar va jamiyat xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanishi lozimligi ta'kidlanadi. Ushbu hujjatda ta'kidlanishicha, ishonchli sun'iy

intellekt faqat texnik samaradorlik bilan cheklanib qolmasdan, balki inson huquqlariga rioya qilish, ijtimoiy adolat, inson qadriyatlarini himoya qilish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalarini ham bajarishi kerakligi qayd etilgan. Shu bois, sun'iy intellekt texnologiyalari insonning qadr-qimmati va sha'nini hurmat qiluvchi, erkinlik hamda tenglik prinsiplariga asoslangan, zarar yetkazmaslik va xolislikni kafolatlovchi, shuningdek, demokratik institutlar va huquq ustuvorligiga muvofiq ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi kerak.

Bunday texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda huquqiy va axloqiy reglamentlar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda inson huquqlarini ta'minlashga doir masalalar yetarli darajada e'tibor va aniq normativ-huquqiy mexanizmlarni talab etadi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarning prokuratura organlari faoliyatidagi o'rni, ularni joriy etishning zamonaviy yo'nalishlari, amaliy imkoniyatlari va ehtimoliy xatarlari, shuningdek, ushbu jarayonning huquqiy va axloqiy tartibga solish masalalari keng qamrovli tahlil etiladi. Mazkur tahlil doirasida milliy qonunchilikka mos keluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi ham ilgari suriladi.

Prokuratura faoliyatida sun'iy intellektni joriy etishning ahamiyati. Ma'lumki, sun'iy intellekt tizimlarining prokuratura organlari faoliyatiga joriy etilishi inson salohiyatini to'g'ri maqsadlarga yo'naltirib, moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish imkonini beradi. Bunda, sun'iy intellekt tizimlari oddiy, takrorlanuvchi va vaqt talab qiluvchi vazifalarni avtomatlashtirishi orqali prokuratura xodimlarining asosiy kuch va e'tiborini yuqori darajadagi tahliliy fikrlash, murakkab huquqiy baholash va strategik qarorlar qabul qilish kabi mas'uliyatli vazifalarga yo'naltirishi, ularning ish yurituvdagi mavjud moliyaviy harajatlarni qisqartirishi, buning natijasida, nazorat faoliyatining samarali tashkil etilishi, boshlang'ich ma'lumotlarni qayta ishlash hamda qonun ustuvorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, sun'iy intellektidan foydalanish prokuratura organlarida tergov harakatlarining yuqori darajada aniqlik, tezkorlik va camarali tashkil etilishini ta'minlab, real vaqt rejimida ma'lumotlarni, dalillarni qayta ishlash va boshqarishda muhim o'rin tutadi.

Jumladan, hozirgi zamonaviy davrda huquqni muhofaza qilish organlari oldida turgan eng muhim muammolardan biri — bu raqamli dalillar oqimining ortib borishi va ularni tizimli boshqarish zaruratidir. Biroq, raqamli dalillar va katta hajmdagi ma'lumotlarni markazlashmagan holda samarali boshqarish murakkab bo'lib bormoqda. Bu holat jinoyatlarni tergov qilish jarayonida dalillar yo'qolishi yoki ularning noto'g'ri talqin qilinishi, jinoyatlarni fosh etish uchun ko'proq vaqt talab etilishi kabi muammolarga olib kelmoqda. Shu sababli, mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida Buyuk Britaniyaning Axon kompaniyasi tomonidan "Raqamli Dalillarni Boshqarish Tizimlari (Digital Evidence Management Systems — DEMS)" yaratilib, ushbu tizim muhim vosita sifatida katta hajmdagi raqamli dalillarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va sudga

taqdim etishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi markazlashtirilgan virtual platforma hisoblanadi.

Shuningdek, DEMS tizimi kuzatuv kamerasi (CCTV) yozuvlari, raqamli intervyular, jamoatchilik tomonidan yuborilgan smartfon videolari kabi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni markazlashtirib, xavfsiz saqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, DEMS tizimi huquqni muhofaza qilish idoralariga dalillarni buzilmagan holatda saqlash (chain of custody), audit jurnallarini yuritish (audit trail), dalillarni tartibga solish va ularni tegishli huquqni muhofaza qiluvchi muassasalari bilan almashish imkonini yaratadi. (masalan, sud organlari bilan). Bundan tashqari, ushbu raqamli tizim tergov jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligining oshirilishiga, tergovchilar ish yuklamasining kamayishiga va dalillarni izchil boshqarilishiga ko'maklashib, jinoyatlarning erta bosqichlarda fosh etilishini ta'minlaydi..

Shuningdek, ilg'or xalqaro tajribalardan misol sifatida — Xitoy davlatining bu boradagi amaliy tajribasini tahlil qilish ham alohida e'tirofga loyiqdir. Jumladan, yaqinda Xitoy Oliy Xalq Prokuraturasining "Aqlli prokuratura" nomli strategik dasturi rasman ishga tushirilib, unda 2025-yilga qadar prokuratura faoliyatini to'liq raqamlashtirish va intellektuallashtirish maqsad qilingan. Xususan, tergov va ish yuritishni "aqlli" intellektual qo'llab-quvvatlash yo'nalishida nutqni tanib olish, katta ma'lumotlar tahlili va boshqa sun'iy intellekt vositalaridan bevosita dalillar yig'ish, baholash, ayblovni tayyorlash va sudda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash jarayonida foydalanishga mo'ljallangan. Masalan, ayblanuvchi yoki gumonlanuvchi shaxsni so'roq qilishda ular bergan barcha ko'rsatmalari bir vaqtning o'zida matn shakliga keltirilishi ta'minlanadi. Bu texnologiya yordamida prokurorlar so'roq bayonlarini qo'lda to'ldirish mehnatidan xalos bo'lib, mehnat unumdorligiga erishiladi.

Ayniqsa, katta ma'lumotlar tahlili yordamida boshqaruv bilan bog'liq ko'plab takroriy vazifalarni avtomatlashtirish orqali xodimlar ishining samaradorligini oshiriladi. Ba'zi mintaqalarda "ishlarni boshqarish roboti" nomli katta ma'lumotlar asosida ishlovchi kuzatuv tizimi yordamida har bir ishning ko'rib chiqilish jarayonini avtomatik tarzda nazorat qilib, prosessual muddatlar yaqinlashib qolganida xodimlarga ogohlantirish beradi, tergov yoki sudda ishni ko'rishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xatarlarni yoki xato-kamchiliklarni namoyon qiladi. "Sun'iy intellekt-prokuror" tomonidan ayblov e'lon qilish tizimi jinoyat ishi faktlari tavsifi asosida ayblovni mustaqil shakllantirish qobiliyatiga egadir.

Mobil qurilmalardagi sun'iy intellekt ilovalarining afzalliklari. So'nggi yillarda raqamli jinoyatlar sonining keskin oshib borishi, xususan, kiberjinoyatchilik, ma'lumotlar xavfsizligining buzilishi hamda raqamli qurilmalar orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar global miqyosda jiddiy xavf sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday jinoyatlar nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga

salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, balki davlat xavfsizligi va fuqarolarning shaxsiy huquqlarini himoya qilishda ham yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

Jumladan, AQSh Federal Qidiruv Byurosi (FBI) tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon internet tarmog'i orqali sodir etilayotgan jinoyatlar bo'yicha 880 418 ta rasmiy murojaat ro'yxatga olingan. Ushbu jinoyatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararining miqdori 12,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan murojaatlar sonining 10 foizga, moliyaviy yo'qotishlarning esa 22 foizga oshganini ko'rsatadi. Mazkur raqamlar kiberjinoyatlar soni ortib borayotganini va ularning iqtisodiy oqibatlari tobora og'irlashyotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Shu sababli, hozirgi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, prokuratura va tergov organlari tomonidan kiberjinoyatlar tahdidiga qarshi tizimli va maqsadli choralar ko'rish, xususan, raqamli dalillar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish, zamonaviy dasturiy ta'minot va ekspert tizimlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prokuratura organlari faoliyatida raqamli dalillar ulushinining ortishi, shu bilan birga, ularni to'plash, tahlil qilish va boshqarish jarayonlarining ko'p hollarda haligacha qo'lda amalga oshirilayotgani ushbu jarayonni samarasiz va vaqt talab qiluvchi bosqichga aylantirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, prokurorlarning jinoyat ishlari yuzasidan nazorat, adolatni ta'minlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilish kabi asosiy vazifalaridan chalg'ishiga olib keladi.

Ma'lumki, jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida prokurorlar ko'plab manbalardan olingan ma'lumotlar bilan ishlashga majbur bo'lib, ularga tergovchi tomonidan taqdim etilgan bayonnomalar, operativ-qidiruv materiallari, mobil qurilmalar orqali ajratib olingan ma'lumotlar, videokuzatuv yozuvlari, audiofayllar hamda boshqa turdagi raqamli hujjatlar kiradi. Ayniqsa, murakkab va ko'p epizodli jinoyat ishlarida mazkur ma'lumotlarning umumiy hajmi yuzlab, hatto minglab sahifalarni tashkil etishi mumkin. Shu holat, o'z navbatida, prokurorlar tomonidan dalillarni tizimli tartibga solish, chuqur tahlil qilish va sud organlariga asosli tarzda taqdim etishda raqamli texnologiyalarga tayanishni taqozo etadi. Natijada, zamonaviy sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan axborot tizimlari nafaqat ish unumdorligini oshirishga, balki qonuniylik va odil sudlov tamoyillarini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Masalan, "Magnet Axiom" dasturiy ta'minoti raqamli kriminalistika sohasida kompleks yondashuvni ta'minlab, turli manbalardan olingan axborotni yagona tahlil muhitida integratsiyalash imkonini beradi. Bu esa dalillarni tahlil qilishda aniqlik, tizimlilik va funktsionallikni oshiradi.

Shu bilan bir qatorda, prokurorlar sun'iy intellekt yordamida telefonlar, kompyuterlar va boshqa shaxsiy qurilmalardan olinadigan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'z faoliyatlarida yuqori samaradorlikka erishmoqdalar. Xususan, huquqiy soxada o'z-o'ziga yordam beruvchi oddiy ekspert tizimlari ham mavjud bo'lib, ular mobil telefonlarga o'rnatilgan dasturlar

ko‘rinishida ishlaydi. Bunday tizimlar, odatda, chat-bot shaklida faoliyat yuritadi va foydalanuvchilarga huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar hamda sud jarayonlarida o‘zini o‘zi himoya qilishda qo‘llaniladigan tavsiyalarni taqdim etadi. Masalan, “Do Not Pay” ilovasi ana shunday tizimlardan biri bo‘lib, u foydalanuvchilarga qo‘llanilgan jarimalarga nisbatan e‘tiroz bildirish, iste‘molchilar huquqini himoya qilish yoki boshqa shu kabi huquqiy sohada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda ko‘maklashadi. Jumladan, Buyuk Britaniyada 2019-yilning fevral oyida bo‘lib o‘tgan sud tinglovida ilk bor sudlanuvchiga “DoNotPay” ilovasi bo‘lgan robot-advokat sudlanuvchiga o‘zini o‘zi himoya qilish uchun zarur maslahatlar va tavsiyalar berib turgan.

Bu kabi texnologiyalarning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi o‘rnini baholar ekanmiz, sun‘iy intellektning raqamli dalillarni qayta ishlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, raqamli qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va monitoring tizimlaridan olinayotgan ma‘lumotlarni o‘zaro integratsiyalangan holda tahlil qilish, turli jinoyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va takrorlanish tendensiyalarini aniqlash, shuningdek, huquqbuzarlik yuz berish ehtimoli bo‘lgan vaziyatlarni modellash tirish borasidagi imkoniyatlari alohida e‘tiborga loyiq. Bunday imkoniyatlar jinoyatlarni tezkor va xolis tergov qilishda, shuningdek, jinoyatchilikni barvaqt oldini olish, tahlil va strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan, zamonaviy intellektual yondashuvlarni joriy etish uchun mustahkam poydevor yaratib bermoqda.

Prokuratura organlarida sun‘iy intellektni qo‘llash bilan bog‘liq xavf - xatarlar. Ma‘lumki, Generativ Sun‘iy Intelekt (GAI) — bu Katta Til Modellari (Large Language Models) asosida ishlaydigan tizim bo‘lib, u matn, audio va vizual ma‘lumotlar kabi katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, inson savollariga mantiqiy, noyob va moslashtirilgan matnli, grafik va boshqa shakllardagi javoblarni yaratadi. Shu sababli, ushbu yangi texnologiya vositalari misli ko‘rilmagan tezlik, samaradorlik, tahliliy salohiyat va ijodiy yordam imkoniyatlarini taqdim etadi.

Sun‘iy intellekt vositalari keng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning mas‘uliyatli va axloqiy qo‘llanilishi bilan bog‘liq jiddiy xavotirlar mavjud. Shu sababli, hozirgi kunda har bir prokuratura organi tez sur‘atlarda rivojlanayotgan sun‘iy intellekt texnologiyalarini qachon va qanday qilib maqbul tarzda o‘z ish yurituvlariga qo‘llash mumkinligi borasida savollar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Negaki, sun‘iy intellekt texnologiyalarini prokuratura organlari faoliyatida qo‘llanishi, o‘z navbatida, yangi huquqiy va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, sun‘iy intellekt texnologiyalari zamonaviy huquqiy muhitda nafaqat huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish, balki inson huquqlari, huquqiy tenglik, diskriminatsiya va huquqiy javobgarlikni aniqlash, ma‘lumotlar maxfiyligini va sun‘iy intellekt qarorlarining adolatligini ta‘minlash kabi masalalarga ham e‘tibor qaratish lozimligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, sun‘iy intellekt asosida qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik masalasini huquqiy jihatdan aniq

tartibga solish, prokuratura organlari tizimidagi inson omilining o'rnini to'g'ri belgilash va texnologik xavfsizlikni taminlash ham global miqyosda asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Xususan, AQShda "Milliy Eng Yaxshi Amaliyotlar Qo'mitasi" (NBP) — Prokurorlar Faoliyatini Takomillashtirish Markazi (PCE) tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, prokurorlarni birlashtirgan holda g'oyalar almashish, muammolarni muhokama qilish va zamonaviy prokurorlik faoliyatidagi eng yaxshi amaliyotlar bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. NBP tarkibiga AQShning 30 ta shtatidagi katta va kichik prokuratura idoralarida faoliyat yuritayotgan tajribali prokurorlar kiradi. Ushbu qo'mita muntazam ravishda yig'ilib, prokurorlar o'rtasida tajriba almashinuvini tashkil etish, siyosiy-ijtimoiy yo'nalishlarda ilg'or amaliyotni ishlab chiqish, axloqiy va yuqori professionallik mezonlarini ilgari surish, shuningdek, zamonaviy prokuratura modelini shakllantirishga doir strategik yondashuvlarni belgilash ustida faoliyat yuritadi. Qo'mita, shu bilan birga, dolzarb mavzularga oid analitik hisobotlar tayyorlashda hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Shu maqsadda, 2025-yilning yanvar oyida qo'mita tomonidan "Sun'iy intellektni integratsiya qilish: prokurorlar uchun yo'riqnomalar va siyosatlar" ("Integrating AI: Guidance and Policies for Prosecutors") nomli huquqiy hujjat qabul qilinib, mazkur hujjat prokuratura idoralari uchun generativ sun'iy intellektidan foydalanishda huquqiy, axloqiy va texnik jihatdan xavfsizlik masalalarini tartibga soluvchi amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjatda prokuratura organlarida sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha maxsus siyosatni ishlab chiqishdan tortib, uni idora ichida tatbiq etish, boshqa tashkilotlar bilan uyg'unlashtirish va kelajakdagi texnologik o'zgarishlarga tayyor bo'lish zarurati bosqichma-bosqich yoritilgan. Ushbu hujjatga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish – bu faqat texnik qaror emas, balki institutsional, huquqiy, axloqiy va xavfsizlik nuqtai nazaridan ko'p bosqichli va murakkab jarayon ekanligi yana bir bor ta'kidlanadi.

Shu munosabat bilan, sun'iy intellekt texnologiyalarini prokuratura organlari faoliyatiga joriy etishda bir qator omillar atroflicha o'rganilishi, jumladan, hozirgi kunda prokuratura tizimida qanday sun'iy intellekt vositalari qo'llanilayotgani, ularning samaradorligi, xavfsizlik darajasi va amaliy foydaliligi aniq baholanishi zarur. Shuningdek, sun'iy intellektning shiddat bilan taraqqiy etib borayotganligi e'tiborga olinsa, har bir yangi sun'iy intellekt vositasi uchun maqsadli baholash, sertifikatlash va sinovdan o'tkazish mexanizmlarini joriy etish zarurati yuzaga keladi. Bu esa prokuratura tizimida sun'iy intellektni joriy etishda tizimli, xavfsiz va mas'uliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, bugungi kunda sun'iy intellektni prokuratura organlari ish yurituvida qo'llashda quyidagi xavf-xatarlar mavjud:

Birinchi o'rindagi xavf-xatarlar qatoriga, sun'iy intellekt algoritmlariga ortiqcha suyanish holatlarini kiritish mumkin. Bu holatda prokuratura organlari xodimlari algoritmik tavsiya va

qarorlarni tanqidiy tahlilsiz qabul qilib, insoniy tekshiruv va mustaqil tahlil jarayonlarini e'tibordan chetda qoldirishlari ehtimoli ortishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, prokuratura xodimlarining nazariy va amaliy ko'nikmalarining susayishiga, shuningdek, xizmat burchiga vijdonan va mas'uliyatli yondashish tamoyillarining zaiflashishiga olib keladi. Mazkur holatlarda prokuratura xodimlari O'zbekiston Respublikasi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi hamda "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida nazarda tutilgan kasbiy mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish huquqi va shaxsiy javobgarlik tamoyillariga qat'iy rioya etishlari talab etiladi.

Shubhassis, sun'iy intellekt tizimlari muayyan vaziyatlar uchun optimal yechimlarni taklif etishi mumkin. Biroq huquqiy muammolar murakkab va ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, ularni hal etishda har bir holatni ijtimoiy, axloqiy tomondan chuqur tahlil qilish zarur. Agar bu omillar yetarli darajada inobatga olinmasa, sun'iy intellekt tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar adolat tamoyillariga zid yoki biryozlama qarorlarning qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, Xitoy amaliyotida prokurorlarga sun'iy intellekt tizimlari tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarga so'zsiz amal qilishdan ehtiyot bo'lish, qaror qabul qilishda nafaqat huquqiy bilimlar, balki odilona va mas'uliyatli yondashuvni saqlab qolish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shu bois, prokurorlar algoritmik tavsiyalarni tanqidiy baholash, ularning asosiy tamoyillarini anglash hamda zarurat bo'lganda mustaqil, oqilona va qonuniy qaror qabul qila olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Bu jarayonda huquqiy masalalar bilangina cheklanib qolmay, balki axloqiy me'yorlar hamda har bir holatning o'ziga xos jihatlarni ham hisobga olish talab etiladi.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarida algoritmik kamsitish (algoritmik diskriminatsiya) muammosi muhim etik va huquqiy masalalardan biridir. Bu muammo muayyan shaxslar yoki guruhlariga nisbatan adolatsiz, kamsituvchi yoki biryozlama qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, sun'iy intellekt algoritmlarining noto'liq, noaniq yoki reprezentativ bo'lmagan o'quv ma'lumotlari asosida ishlashi algoritmik bias (tarafkashlik yoki biryozlamalik) xavfini yuzaga keltiradi. Natijada, bunday tizimlar inson huquqlari, tenglik va adolat tamoyillarining buzilishi ehtimoli ortib boradi. Shu sababli, sun'iy intellektni joriy etishda algoritmlarning o'qitilish jarayonida foydalaniladigan ma'lumotlar to'plamini tanqidiy, chuqur tahlil qilish hamda bias (tarafkashlik yoki biryozlamalik) xavfini minimallashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni joriy etish zarur hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ma'lumotlar to'plamlarini doimiy ravishda yangilab borish, ularning sifatini nazorat qilish, shuningdek, algoritmlarni muntazam ravishda tekshiruv va auditdan o'tkazish tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar sun'iy intellekt faoliyati jarayonida jamiyatda mavjud bo'lgan biryozlama yondashuvlarni oldini olishga xizmat qiladi. Zero, bugungi kunda jamiyatda fuqarolar uchun teng va adolatli munosabatlarni o'rnatish hamda ularning teng huquqli ishtirokini

kafolatlovchi keng shart-sharoitlarni yaratish — demokratik-huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biridir.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda yuzaga keladigan eng jiddiy xavflardan yana biri — ichki maxfiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishidir. Prokuratura organlarida jinoyat ishlarini yuritish jarayonida tergovga oid tafsilotlar, guvohlar, jabrlanuvchiga oid shaxsiy ma'lumotlar va dalillar haqidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Biroq, generativ sun'iy intellekt vositalariga ushbu ma'lumotlar kiritilganda, ularning dastur ishlab chiquvchilarga yoki boshqa foydalanuvchilarga uzatilish xavfi mavjud. Masalan, ish bo'yicha xulosa tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanishdan oldin, prokuror kiritilgan ma'lumotlar kimlarga va qanday sharoitlarda oshkor qilinishi mumkinligini sinchkovlik bilan baholashi lozim. Ayniqsa, matnli yozishmalarni tahlil qilish jarayonida generativ sun'iy intellekt vositalari qo'llangan bo'lsa, eng avvalo, bu ma'lumotlarning uchinchi tomonga chiqib ketmasligiga ishonch hosil qilish zarur.

Hozirda ChatGPT, Gemini, Grammarly, Google Translate, DALL-E, DeepAI, AlphaCode va OpenAI jahonda keng tarqalgan sun'iy intellekt platformalari hisoblanib, ular ish yuritish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi turli funksional imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Biroq, mazkur sun'iy intellekt platformalari ommaviy ochiq serverlar asosida ishlashi sababli, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni o'z serverlarida vaqtincha yoki doimiy tarzda saqlab qolishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim sun'iy intellekt tizimlari foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlardan o'z modellarini o'rgatish yoki boshqa foydalanuvchilar so'rovlariga javob berish uchun foydalanishi mumkin. Natijada, tergov jarayonlariga oid maxfiy hujjatlar, dalillar, guvohlarning shaxsi yoki xizmatga oid ma'lumotlar oshkor bo'lish xavfi ostida qoladi. Negaki, bunday tizimlar axborot xavfsizligi va ma'lumotlar maxfiyligini kafolatlay olmay, ma'lumotlarning uchinchi tomon qo'lga o'tishi ehtimolini vujudga keltiradi. Shu sababli, ommaviy ochiq sun'iy intellekt platformalariga maxfiy yoki cheklangan axborotni kiritish qat'iyan man etilishi, shuningdek, prokuratura organlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish uchun ichki, yopiq muhitda ishlovchi, maxsus yaratilgan, xavfsiz sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish eng maqbul yechim hisoblanadi.

Bunda sun'iy intellekt tizimlari faqat oldindan vakolat berilgan IT mutaxassisleri ishtirokida ishlab chiqilishi, ularning faoliyati esa axborot xavfsizligiga oid milliy va xalqaro huquqiy-me'yoriy talablarga muvofiq tarzda tashkil etilishi lozim. Bunday tizimlarda ma'lumotlar uzatish va saqlash xavfsizligini ta'minlovchi maxsus texnik reglamentlar asosida qat'iy nazorat mexanizmlari joriy etilishi va har bir holat individual tarzda baholanishi zarur. Mazkur yondashuv sun'iy intellekt texnologiyalarini prokuratura organlari faoliyatiga xavfsiz, ishonchli va izchil integratsiya qilish imkonini beradi.

Xususan, 2023-yil 2-mayda Korea Respublikasining “Samsung Electronics” kompaniyasi o‘z xodimlari tomonidan ChatGPT va boshqa sun‘iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanishni taqiqladi. Ushbu qaror, bunday platformalarda ichki maxfiy ma’lumotlar sizib chiqishi xavfi borligi haqidagi xavotirlar ortidan qabul qilindi. Negaki, kompaniya xodimlaridan biri buzilgan ma’lumotlar bazasini tuzatish uchun ChatGPTdan yordam so‘rab, maxfiy dastur kodini yuklagan. Bu hodisa maxfiy ma’lumotlarning ochiq internet muhitida tarqalib ketish xavfini yuzaga keltirib, kompaniya uchun axborot xavfsizligi bo‘yicha ogohlantiruvchi signal bo‘ldi. Chunki, OpenAI ChatGPT yoki DALL-E kabi xizmatlarga yuborilgan foydalanuvchilarning yuborgan savollari hamda ma’lumotlaridan SI modelini o‘rgatish uchun foydalanilishini aytadi. Ushbu voqeadan so‘ng boshqa yirik kompaniyalar ham ChatGPTdan foydalanishni cheklashga qaror qildi. Bu qaror, kompaniya muhandislaridan biri sun‘iy intellekt chatboti orqali maxfiy ma’lumotlarni yuklagani haqidagi xabarlar ortidan qabul qilindi.

Shuningdek, yana bir jiddiy xavf-xatarlaridan biri hisoblangan sun‘iy intellekt tizimlarining gallyutsinatsiyaga moyilligi, ya’ni haqiqatga mos kelmaydigan, lekin ishonchli ko‘rinishga ega bo‘lgan noto‘g‘ri, o‘ylab topilgan ma’lumotlarni generatsiya qilish holatlaridir. Masalan, katta til modellari (LLM) asosida ishlab chiqilgan chatbotlar, masalan “Chatgpt” ba’zan realga o‘xshash, ammo to‘qib chiqarilgan noto‘g‘ri ma’lumotlarni yaratishi mumkinligi tadqiqotlar orqali aniqlanib, huquqiy tizimda qo‘llashda sezilarli xavf yaratmoqda. Jumladan, 2023-yilda tahlilchilar chatbotlar javoblarining 27 % holatida gallyutsinatsiya kuzatilganini, yaratilgan matnlarning 46 % holatida faktik xatolar mavjudligini aniqlashgan. Bundan tashqari, Nyu-Yorkdagi kichik korxonalar uchun yuridik maslahat berish uchun yaratilgan sun‘iy intellekt chatboti firmalarga qonunni buzishni tavsiya qila boshladi. Ushbu sun‘iy intellekt vositasi xodimni jinsiy zo‘ravonlikdan shikoyat qilgani, shuningdek, homiladorligini oshkor qilmagani uchun ishdan chetlatish yoki soch turmagini o‘zgartirishdan bosh tortganiga ko‘ra ish beruvchi tomonidan jazolanish qonuniy, deb noto‘g‘ri tushuntirgan. Bunday tavsiyalar mehnat qonunchiligi va inson huquqlari himoyasi talablari nuqtai nazaridan mutlaqo noqonuniy hisoblanadi.

Shuningdek, yuqoridagi holatlar sun‘iy intellekt vositalarining yuridik masalalarda avtomatlashtirilgan tarzda tavsiya berishi qanday xatarlarga olib kelishini ochiq namoyon etdi. Agar sun‘iy intellekt vositasida ishlab chiqilgan hujjatlar yoki huquqiy maslahatlar noto‘g‘ri ma’lumotlar asosida shakllanganda, bu nafaqat huquqiy noaniqliklarga olib kelishi, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ish yurituviga ishonchsiz dalillarning kirib kelishiga, xato qarorlar qabul qilinishiga, eng asosiysi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga, shuningdek davlat organlariga nisbatan ishonchsizlik ruhining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Agar prokuror sun‘iy intelektni ishlatib, mavjud dalillarga asoslanmagan holda ayblov xulosasini tuzsa, bu bir necha jiddiy xavflarga olib kelishi mumkin. Bunda prokurorlar, masalan,

shaxsiy guvohlarning yozuvlari yoki sud ekspertizasining natijalarini sun'iy intellektga kiritishda ehtiyotkor bo'lishlari kerak, chunki sun'iy intellekt bu ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilishi yoki asossiz xulosalar chiqarishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan yoki tavsiya etilgan axborotdan foydalanishda prokuratura organlari uni dalil sifatida qabul qilishdan avval, ularning manbasi, aniqligi va qonuniy yo'l bilan olinganligini har tomonlama tekshirishi shart. Aks holda, sun'iy intellekt asosidagi dalil sudda rad etilishi va hatto, aybsizlik prezumpsiyasini buzish xavfi yuzaga kelishi mumkin. Bu borada, prokuratura organlari tomonidan sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda maxsus ichki siyosat hujjatlarini ishlab chiqish, ularning huquqiy va axloqiy asoslarini belgilab olish, xavfsizlik va monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu esa sun'iy intellektning professional, mas'uliyatli va inson huquqlarini himoya qiluvchi tarzda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi davrda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari tez sur'atlarda kengayib, huquqiy jarayonlarning yanada samaradorligi, aniqligi va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, prokuratura, tergov va sud tizimlarida sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlarning aniqligi, asoslanganligi va inson huquqlariga zid bo'lmasligi eng muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini prokuratura organlarida qo'llanilishi huquqiy va axloqiy xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi, ya'ni huquqiy tengsizlik, ayrim guruhlariga nisbatan diskriminatsiyani xavfini oshirish, bir yoqlamalik, ma'lumotlar maxfiyligi, sun'iy intellekt qarorlarining adolatligini ta'minlash va huquqiy javobgarlikni aniqlash kabi masalalarga ham e'tibor qaratish lozimligini nazarda tutadi. Yuqoridagi sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash borasidagi fikr-mulohazalar, xalqaro huquqiy standartlar va xorijiy davlatlar qonunchilik amaliyotidan kelib chiqqan holda, prokuratura organlari faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan xavfsiz va samarali foydalanishni takomillashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, prokurorlarning sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqiy jarayonlarga tatbiq qilishda huquqiy mas'uliyat, ehtiyotkorlik va tahliliy yondashuv, sun'iy intellektning cheklovlarini, imkoniyatlarini to'liq tushunish va huquqshunoslarning axloqiy majburiyatlarini hisobga olish zaruriyati texnologiyalarning ishonchliligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Negaki, sun'iy intellekt tizimlarining gallyutsinatsiyaga moyilligi, ya'ni haqiqatga mos kelmaydigan, lekin ishonchli ko'rinishga ega bo'lgan, biroq noto'g'ri, yetarli asosga ega bo'lmagan tavsiyalarni generatsiya qilishi mumkin. Shu sababli, prokuratura faoliyatida huquqiy xulosalar chiqarish, ish yuritish hujjatlarini tayyorlash yoki strategik qarorlar qabul qilishda ushbu texnologiyalarga to'liq tayanish, asosiy yoki yagona manba sifatida ishlatish maqsadga muvofiq emas. Prokuratura xodimlari sun'iy intellekt taqdim qilgan ma'lumotlar, taklif va tavsiyalarni

amaliyotga tatbiq etishdan oldin o'z huquqiy bilimlariga va amaliy ko'nikmalariga tayangan holda qaytadan sinchiklab tahlil qilishi, huquqiy baholashdan o'tkazishi, haqiqatga to'g'ri kelishiga ishonch hosil qilishlari, ularning natijalari esa mutaxassislar tomonidan ehtiyotkorlik, huquqiy mas'uliyat doirasida tekshirib chiqilishi va shundan so'nggina, o'z ish yurituv amaliyotiga joriy etishlari muhim hisoblanadi. Bu esa, sun'iy intellekt texnologiyalarining prokuratura tizimidagi qo'llanilishi faqat yordamchi vosita sifatida ko'rilishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali va xavfsiz foydalanishni ta'minlash maqsadida ushbu texnologiyalarni tizimli baholash mexanizmi joriy etilishi zarur. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga tatbiq etilayotgan maxsus, shuningdek, ommaviy foydalanish uchun ochiq sun'iy intellekt vositalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularda qayta ishlanayotgan ma'lumotlar tarkibi, ma'lumotlarning ishonchliligi va dasturning boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyalashish imkoniyatlari kompleks tahlil etilishi lozim. Prokuratura organlari faoliyatida amalda qo'llanilayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarini baholash va takomillashtirish uchun maxsus ekspert guruhini tashkil etish, sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha sohasiy siyosatni muntazam ravishda yangilab borish, shuningdek, xodimlarni muntazam axborot va malakali tayyorgarlik bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarining izchil rivojlanishi sharoitida huquqiy sohaga mansub mutaxassislar ushbu texnologiyalarni o'z amaliy faoliyatlariga moslashtirish bilan birga, axloqiy me'yorlarga ham qat'iy rioya etishni ham talab etadi. Shu sababli, sun'iy intellektning huquqiy tizimdagi qo'llanilishi doirasida yanada to'g'ri va aniq nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Jumladan, huquqiy tizimda foydalaniladigan sun'iy intellekt tizimlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazgan holda sertifikatlash tartibini, texnologiyalar bo'yicha standartlarni joriy etish orqali noto'g'ri, o'ylab topilgan ma'lumotlar taqdim etilishining oldini olinadi. Shuningdek, faqat oldindan tasdiqlangan, sinovdan o'tgan va ishonchliligi aniqlangan sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish huquqini beradigan xavfsiz huquqiy amaliyot joriy etilishi zarur. Huquqiy etikaga qo'yilayotgan talablarning texnologik taraqqiyot bilan hamohang rivojlanishi sun'iy intellektning huquqiy sohadagi roli adolat tamoyillariga xizmat qiladigan darajada shakllanishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarining prokuratura tizimida joriy etilishi, avvalo, prokurorlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonligi va tahliliy salohiyatini oshirishni talab etadi. Negaki, bu kabi ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat texnik bilimlarni, balki sun'iy intellekt vositalarining huquqiy, axloqiy va amaliy jihatlarini ham chuqur anglashni talab qiladi. Shu munosabat bilan, xodimlar tomonidan sun'iy intellektning imkoniyatlari, ehtimoliy xavflari hamda xavfsiz, mas'uliyatli foydalanish tamoyillari

yuzasidan nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida prokuratura organlari xodimlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga oid yangi institutsional siyosatni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha aniq me'yoriy ko'rsatmalar berish, shuningdek, maqsadli o'quv dasturlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, sun'iy intellektning prokuratura faoliyatiga qo'llash jarayonida xavfsizlik va ichki ma'lumotlar maxfiyligi muhim ustuvorlik kasb etadi. Shu boisdan, generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda qat'iy tartib va aniq siyosatni belgilovchi huquqiy va axloqiy mezonlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, sun'iy intellekt texnologiyalarini prokuratura tizimiga joriy etishda qat'iy siyosat, nazorat mexanizmlari va "yopiq tizim" modeli, ya'ni faqat maxsus belgilangan, ichki xavfsiz axborot resurslari doirasida ishlaydigan tizimlardan foydalanish zarur. Negaki, ommaviy foydalanish uchun yaratilgan ochiq sun'iy intellekt platformalari (masalan, ChatGPT, Gemini, Grammarly, Google Translate, DALL·E, DeepAI va boshqalar) odatda foydalanuvchi ma'lumotlarini o'z serverlarida saqlab qolishi, tahlil qilishi va kelajakda boshqa maqsadlarda qayta ishlashi mumkin. Bu esa huquqiy amaliyotda, ayniqsa prokuratura tizimida, jiddiy xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, prokuratura organlari faoliyatida ishlatiladigan maxfiy axborotlarni bunday tizimlarga topshirish axloqiy va huquqiy jihatdan mutlaqo maqbul emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.nature.com/articles/d41586-025-02095-8>;
2. <https://www.ft.com/content/9019cd51-2b55-4175-81a6-eafcf28609c3>;
3. <https://lex.uz/acts/-106197>;
4. <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/ethics-guidelines-trustworthy-ai>;
5. <https://policinginsight.com/feature/what-can-a-dems-do-for-your-force-how-evolving-digital-evidence-management-can-tame-the-tidal-wave-of-data>;
6. М.М.Мамасиддиқов, М.Исламов, "Хитой прокуратура органларида сунъий интеллектни жорий этиш билан боғлиқ муаммолар ва чакириқлар", "Одил судлов" журнали, 4-сон, 2025 йил;
7. <https://www.ic3.gov>;
8. Jenia I. Turner, Managing Digital Discovery in Criminal Cases, 109 J. CRIM. L. & CRIMINOLOGY 237, 249–50 (2019) (noting the explosion in digital evidence in criminal cases, and that the "cases involving gigabytes— and even terabytes—of data are no longer unusual");
9. Е.В.Коленко. "Перспективы использования искусственного интеллекта в сфере охраны правопорядка". Киберхукук: муаммолар ва ривожлантириш истиқболлари.

Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. /Масъул муҳаррир М.М.Мамасиддиқов. "Импресс медиа". 2025. 9-17 б.;

10. М.М.Мамасиддиқов. "Суд ишларини юритишда сунъий интеллект имкониятлари", Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг "Ҳуқуқ" интерфаол газетаси, 13.02.2025 й..№ 7 (1464);

11. <https://pceinc.org/wp-content/uploads/2025/06/20250125-PCE-AI-Sample-Policy-Template.pdf>;

12. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонуни (янги таҳрири), 2022 йил 8 август, ЎРҚ-788-сон. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, www.lex.uz.

13. М.М.Мамасиддиқов., М.Исламов, "Хитой прокуратура органларида сунъий интеллектни жорий этиш билан боғлиқ муаммолар ва чақириқлар", "Одил судлов" журнали, 4-сон, 2025 йил.

14. Formal Opinion 512, Generative Artificial Intelligence Tools, American Bar Association, Standing Committee on Ethics and Professional Responsibility, July 29, 2024.

15. https://www.bloomberg.com/news/articles/2023-05-02/samsung-bans-chatgpt-and-other-generative-ai-use-by-staff-after-leak?utm_source=chatgpt.com;

16. Metz, Cade (6 November 2023). "Chatbots May 'Hallucinate' More Often Than Many Realize". The New York Times. Archived from the original on 7 December 2023. Retrieved 6 November 2023;

17. <https://apnews.com/article/new-york-city-chatbot-misinformation6ebc71db5b770b9969c906a7ee4fae21>;